
“Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” bayrami munosabati bilan Buvayda tumanida tadbir bo‘lib o‘tdi

25 oktyabr-“Ichki ishlar idoralari xodimlari kuni” munosabati bilan "Ikki Yulduz" tantanalar saroyida tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda sektor rahbarlari, masul idoralarning rahbarlari hamda soha vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda Tuman hokimi Behzodjon Ibragimov so‘zga chiqib tumanimiz hududida jinoyat va huquqbuzarliklarni oldini olish borasida ichki ishlar organlari tomonidan tezkor-profilaktik chora-tadbirlar olib borilayotgani, bunda har bir xodimning alohida o‘rni borligini e‘tirof etdi. Shundan so‘ng o‘z xizmat vazifalariga sidqidildan yondashib, jinoyatchilikka qarshi kurashish va uning oldini olish, jamoat tartibini saqlash bilan bir qatorda tumanimiz hududida olib borilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etib kelayotgan fidoyi xodimlarning bir guruhiga 25 oktyabr-“Ichki ishlar organlari xodimlari kuni” munosabati bilan tuman hokimligining qimmatbaho sovg‘alari topshirildi.

<https://t.me/Buvaydaaxborotxizmati/11726>

2023-10-29 12:10:21